

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA MASHG'ULOTLAR
JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH VA MONITORING OLIB BORISH**

Chuponkulova Sitara Bozor qizi

Surxondaryo viloyati Sariosiyo tumani

16 - sonli DMTT Direktor o'rinbosari

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mashg'ulotlar jarayonini takomillashtirish, ta'lim sifati ustidan samarali monitoring olib borish hamda pedagogik nazoratni tashkil etish masalalari yoritilgan. Shuningdek, direktor o'rinbosarining boshqaruv, metodik va nazorat faoliyati orqali mashg'ulotlar samaradorligini oshirish, pedagoglar faoliyatini tahlil qilish va ta'lim jarayonini takomillashtirishning muhim jihatlari tahlil etilgan.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы совершенствования процесса обучения в дошкольных образовательных организациях, проведения эффективного мониторинга качества образования и организации педагогического контроля. Также анализируются важные аспекты повышения эффективности обучения посредством управленческой, методической и надзорной деятельности заместителя директора, анализируется деятельность педагогов и совершенствуется образовательный процесс.

Abstract: This article discusses the issues of improving the training process in preschool educational organizations, conducting effective monitoring of the quality of education, and organizing pedagogical control. It also analyzes important aspects of improving the effectiveness of training through the management, methodological, and supervisory activities of the deputy director, analyzing the activities of teachers, and improving the educational process.

Kalit so'zlar: MTT, direktor o'rinbosari, mashg'ulot samaradorligi, pedagogik nazorat, monitoring, ta'lim sifati, boshqaruv faoliyati.

Ключевые слова: Ключевые слова: контроль, мониторинг, качество образования, управленческая деятельность.

Key words: MTT, deputy director, training efficiency, pedagogical control, monitoring, quality of education, management activities.


MTTlarda mashg'ulotlar samaradorligini ta'minlash va nazorat qilish ta'lim sifati oshirishga xizmat qiluvchi muhim pedagogik jarayon hisoblanadi. Ushbu jarayonni samarali tashkil etish tarbiyachilarning kasbiy mahorati, metodik ta'minotning puxtaligi hamda monitoring va tahlil tizimining to'g'ri yo'lga qo'yilishiga bevosita bog'liqdir. Ta'lim sifati ustidan tizimli nazorat olib borish bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimiz

rahbari tomonidan ta'kidlanganidek, har bir qabul qilinayotgan qarorlar jamiyatga real foyda keltirishi zarur. Boshqaruv tizimi boshqarilayotgan jarayonlarning aniq maqsadga yo'naltirilganligi va izchil tashkil etilishini ta'minlashi lozim. Bunda boshqaruv faoliyati maqsadlarni belgilash, ularga erishish strategiyasini ishlab chiqish, ijrochilar o'rtasida vazifa va vakolatlarni taqsimlash, jamoada samarali mehnat muhitini yaratish hamda ish jarayonini doimiy nazorat qilib borish kabi muhim vazifalarni o'z ichiga oladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida direktor o'rinbosari tomonidan olib boriladigan pedagogik nazorat jazolovchi emas, balki rivojlantiruvchi va maslahat beruvchi xarakterga ega bo'lishi zarur. Bunday yondashuv tarbiyachilarning kasbiy o'sishini rag'batlantiradi, ularning metodik mahoratini oshirishga xizmat qiladi hamda jamoada sog'lom pedagogik muhitni shakllantiradi. Mashg'ulotlarni kuzatish, tahlil qilish va natijalarni umumlashtirish orqali ta'lim jarayonidagi mavjud muammolar o'z vaqtida aniqlanadi hamda ularni bartaraf etish bo'yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqiladi.

Shuningdek, monitoring natijalari asosida qabul qilinadigan boshqaruv qarorlari mashg'ulotlar sifatini yanada takomillashtirish, metodik ishlarni tizimlashtirish hamda ta'lim jarayonini modernizatsiya qilish imkonini beradi. Direktor o'rinbosarining metodik yetakchilik faoliyati ochiq mashg'ulotlar, seminarlar, treninglar va pedagogik kengashlar orqali pedagoglarning kasbiy salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Natijada bolalarning bilim, ko'nikma va malakalari ularning yosh hamda individual xususiyatlariga mos ravishda rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratiladi.


Mashg'ulotlar ustidan pedagogik nazoratni tashkil etish

Direktor o'rinbosari tomonidan olib boriladigan pedagogik nazorat ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan bo'lishi lozim. Nazorat jarayonida:



Ta'lim sifatini boshqarish, eng avvalo, boshqaruv kadrlari tomonidan ta'lim va kadrlar tayyorlash jarayonini kuzatish kabi faoliyat turidan foydalanishni ko'zda tutadi. Buning uchun ular tegishli metodlarni, jumladan, kvalimetriya asoslarini, ya'ni sifatni miqdoriy baholash metodini qo'llash orqali ta'lim sifatining boshlang'ich va berilgan holatini aniq belgilashlari lozim bo'ladi. Ilmiy adabiyotlarda mahsulot, xizmatlar

sifatini baholash, boshqaruv faoliyatining baholash ob'ekti to'g'risida qadriyat borasidagi mulohazalarni shakllantirishga qaratilgan funksiyasining alohida tipiga kiritiladi. *Ta'lim sifatini o'lchash sifat o'lchovini belgilash va uning qiymatini maxsus algoritmlar yordamida olishni ko'zda tutadi. Bunday jarayonning samaradorligi baholashning statistik metodlarini qo'llash orqali ta'minlanadi.* Bu baholanayotgan ob'ektning sifat ko'rsatkichlari qiymati aksariyat hollarda tasodifiy kattaliklar deb hisoblanishi bilan bog'liqdir. Bunday holat ana shu sifatga bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatuvchi ko'plab omillar va shart-sharoitlar bilan izohlanadi. SHu bois boshqaruv tarkibi ta'lim sifati haqidagi axborotni olish va ishlashning statistik metodlarini qo'llay bilishi kerak. Shu jihatdan olganda, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifatini ta'minlashda zamonaviy yondashuvlar, boshqaruv, innovatsiya va axborot texnologiyalarini ta'lim-tarbiya jarayoniga joriy etishda rahbarlik layoqatini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur vazifani amalga oshirishda maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbar xodimlarining har biridan yuksak kasbiy salohiyat va insoniy sifatlarga ega bo'lish talab etiladi. «Avvalambor, uning vatanparvar va yurtparvarlik fazilatlariga ega bo'lishi, ona yurtini chin qalbidan sevishi va ardoqlashi, el-yurti uchun o'zini ayamassligi, kerak bulsa, bu yo'lda jonini ham fido qilishiga tayyor bo'lishini, o'z kasb-korining ustasi, shu ishning chinakam bilimdoni, bu borada boshqalarga o'rnak bo'lishini kutadi. Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mashg'ulotlar samaradorligini ta'minlash, ta'lim jarayonini tizimli monitoring qilish hamda rahbarlik faoliyatini takomillashtirish ta'lim sifatini barqaror rivojlantirishning muhim omillaridan biridir. Direktor o'rinbosarining mas'uliyatli, tahliliy va innovatsion yondashuvi esa maktabgacha ta'lim tizimida zamonaviy, samarali va raqobatbardosh ta'lim muhitini shakllantirishga xizmat qiladi.



Shu bilan birga maktabgacha ta'limni isloh qilishning asosiy shartlaridan biri - buyuk ma'naviy fazilatlarga ega, insoniy fazilatlarni o'zida mo'jassamlashtirgan, yetuk kadr sifatida faoliyat yuritayotgan mutaxassislar avlodini yetishtirishni talab

etadi. Hozirgi davrning bu talabi – matabgacha ta’lim tarbiyalanuvchilarini axloqan va ma’nan yetuk, komil insonlar qilib tarbiyalash vazifalarini bajarishni talab etadi. MTT rahbarlari va pedagog kadrlari oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri – erkin fuqaro ma’naviyatini, ozod shaxsni shakllantirish masalasidir. Boshqacha aytganda, o’z xaq-huquqlarini taniydigan, o’z kuchi va imkoniyatlarini anglagan, atrofda sodir bo’layotgan voqea va hodisalarga mustaqil munosabat bilan yondashgan, ayni zamonda shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg’un xolda quradigan erkin, har jihatdan barkamol insonlarni tarbiyalash lozim. Shu jihatdan olganda, barkamol insonni tarbiyalash avvalo, pedagoglardan ulkan mahorat va mas’uliyatni talab qiladi. Ustozlik mahorati va tarbiyachilik san’atining tayyor andozasi yoki qolipi mavjud emas. Ushbu san’atni egallash uchun insondan katta kuch, ijodkorlik va ko’p yillik tajriba talab etiladi. onini rejalashtirish, uni amalga oshirish, o’quv reja, dasturlarining mazmun mohiyati bilan emas, balki bolalarning olgan bilimlari, malaka va ko’nikmalari, mustaqil ravishda olgan bilimlari bilan bog’liq ta’lim natijasi sifati bilan belgilanmoqda. Har tomonlama taraqqiy etgan, aqlan va ma’nan barkamol, jismonan va ruhan tetik farzandlarni maktabgacha tarbiya tashkilotlarida kamol toptirish ahamiyati, Vatanimizning ravnaqi bugungi kunda yosh avlodlarga bergan ta’lim sifati va tarbiya mohiyati bilan chambarchas bog’liqligi alohida dolzarblik kasb etadi. Mamlakatimizda bu borada amalga oshirilayotgan islohotlar buyuk ma’naviy fazilatlarga ega, insoniy fazilatlarni o’zida mo’jassamlashtirgan, yetuk kadr sifatida faoliyat yuritishga zamin hozirlaydi.



O’zbekistonda maktabgacha ta’lim tizimini tubdan isloh qilish jarayonida ta’lim-tarbiya jarayonining barcha shakllarini samarali tashkil etish, ularni shaxs kamoloti maqsadlariga yo’naltirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bu jarayonda tarbiyalanuvchilarda keng dunyoqarashni shakllantirish, ularning qobiliyat va iste’dodlarini rivojlantirish hamda jamiyat uchun zarur bo’lgan faoliyatga moyillikni yuzaga keltirish asosiy maqsadlardan biridir. Pedagogning ko’p qirrali faoliyati, uning yuqori kasbiy mahorati, ijodkorligi va fidoyiligi barkamol avlodni tarbiyalashda muhim omil hisoblanadi. Shu sababli yosh avlodni ma’naviy yetuk, bilimli va har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida tarbiyalash masalasi davlat siyosati darajasidagi ustuvor yo’nalishlardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Pedagogik mahoratga ega bo’lgan pedagog tarbiyaviy jarayonda yuzaga keladigan qiyinchiliklarni yengib o’tishga qodir, o’sib kelayotgan yosh avlodning ma’naviy olamini chuqur anglay oladigan, ularning tuyg’ularini his etadigan hamda bola shaxsiga noziklik va e’tibor bilan yondashadigan mutaxassisdir. Bunday pedagog

donolik, ijodiy fikrlash, ilmiy tahlil qilish qobiliyati, keng tafakkur va pedagogik madaniyatga ega bo‘lishi bilan ajralib turadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim jarayonining sifati faqatgina o‘quv reja va dasturlarining mazmuni bilan emas, balki ta’lim jarayonining natijadorligi bilan ham belgilanadi. Ya’ni, ta’lim sifati tarbiyalanuvchilarning egallagan bilimlari, shakllangan ko‘nikma va malakalari, shuningdek, mustaqil fikrlash va bilim olish qobiliyatlari orqali namoyon bo‘ladi. Shu sababli maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim jarayonini samarali tashkil etish hamda uning natijalarini muntazam tahlil qilib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa: Maktabgacha ta’lim tizimida pedagoglarning ijodkorligi, fidoyiligi va yuqori pedagogik mahorati bolalarning bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Shu bilan birga, ta’lim jarayonini muntazam monitoring qilish, mashg‘ulotlarni tahlil etish va metodik ishlarni takomillashtirish orqali ta’lim sifatini yanada oshirish mumkin. Yuqoridagilardan kelib chiqib, bugungi kunda davlat va nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim va tarbiya sifatini takomillashtirish muammosini alohida tadqiqot predmeti sifatida o‘rganish ehtiyoji sezilmoqda. Umuman olganda, direktor o‘rinbosarining mas’uliyatli, tahliliy va tizimli yondashuvi MTT faoliyatining samaradorligini oshiradi, ta’lim sifatini barqaror rivojlantirishga xizmat qiladi hamda maktabgacha ta’lim tizimida raqobatbardosh, zamonaviy va sifatli ta’lim muhitini shakllantirishga muhim hissa qo‘shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori, 2019., 13 may, PQ 4312 son.
2. Narimbaeva L.K Maktabgacha ta’lim sifatini nazorat qilish va boshqarishning mexanizmlarini takomillashtirish. "Экономика и социум" №9(88) 2021 www.iupr.ru 944-945b
3. Mirziyoev SH.M. “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz” ” O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqi Toshkent-“O‘zbekiston” -2016, 11-bet, 20-bet.
4. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob halqimiz bilan birga qo‘ramiz. –Toshkent:O‘zbekiston, 2017.-488 bet.